

UDC: 347 (042) (575.1)
ORCID: 0000-0001-7042-9003

IXTIIRONING FUQAROLIK-HUQUQIY REJIMI

Mexmonov Qambariddin Miradxamovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,
e-mail: q.mehmonov@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi tahlil etilgan. Taklif etilgan tadqiqot ixtiro tushunchasi, huquqiy rejimining mazmun-mohiyati, mavjud prinsiplar, ixtiroga oid munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari haqida to'liq ma'lumot olishga imkon beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarining yaratilishi va huquqiy muhofaza hujjati (patent) berilishi tendensiyasi huquq egalarining huquqlari yetarlicha himoyalananmagani bilan asoslanadi. Shu bilan birga, ixtironing patentga layoqatli shartlari, himoya hujjatining berilish shartlarining murakkabligi huquqiy himoyani amalga oshirishni murakkablashtiradi. Huquq egalari o'z huquqlarini amalga oshirishda nafaqat milliy qonunchilikdan, balki xalqaro miyosda ham himoya olish imkoniyatlaridan samarali foydalanmayapti. Ixtironing huquqiy rejimini aniqlash tahlili shuni ko'rsatadiki, aniq huquqiy chora-tadbirlar, mexanizmlarni qo'llash orqali O'zbekistonda ixtiro yetarlicha huquqiy himoya ostiga olinishi mumkin. Mazkur muammolarni huquqiy tartibga solish uchun O'zbekistonning intellektual mulk sohasidagi qonunchiligini xalqaro talablarga moslashtirish hamda ixtiroga nisbatan huquqni himoya qilishni ta'minlash kerak. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishda asosiy yo'nalish axborot texnologiyalari, sun'iy intellektidan foydalanish bo'lishi zarur, degan qat'iy pozitsiyani ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada olimlarning ilmiy nuqtayi nazarlari, innovatsion rivojlanish davrida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi strategiyasi, ixtiroga doir nizolarni hal qilish masalalari atroficha o'rganilgan. Xulosada muallif muayyan xulosalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, sanoat mulki obyektlari, huquqiy rejim, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, mustasno huquq, sud nizosi, qonunchilikni takomillashtirish.

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ РЕЖИМ ИЗОБРЕТЕНИЙ

Мехмонов Камбариiddин Мирадхамович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется гражданско-правовой режим изобретений. Предлагаемое исследование дает полное представление о концепции изобретения, содержании правового режима, существующих принципах, тенденциях развития отношений, связанных с изобретением. В последние годы в Узбекистане тенденция создания интеллектуальной собственности и выдачи документов правовой защиты (патентов) демонстрирует недостаточность правовой защиты правообладателя. В то же время условия патентоспособности изобретения, сложность условий выдачи охранного документа затрудняют реализацию правовой защиты. Осуществляя свои права, правообладатели неэффективно используют возможности для защиты не только национального законодательства, но и международно-правовых норм. Анализ правового режима изобретения показывает, что изобретение в Узбекистане может быть адекватно защищено применением конкретных правовых мер и механизмов. Для законодательного урегулирования этих вопросов необходимо привести законодательство Узбекистана в области интеллектуальной собственности в соответствие с международными требованиями и обеспечить защиту права на изобретения. Автор твердо придерживается позиции, что основным направлением в поиске правового решения этих вопросов должно стать использование информационных технологий, искусственного интеллекта. В статье также исследуются научные взгляды ученых, стратегия законодательства Республики Узбекистан в период инновационного развития, урегулирование споров по поводу изобретений. В заключение автор делает определенные выводы.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, объекты промышленной собственности, правовой режим, изобретение, полезная модель, промышленный образец, исключительное право, судебный процесс, совершенствование законодательства.

CIVIL-LEGAL REGIME OF INVENTIONS

Mekhmonov Kambariddin Miradkhovich,

Researcher of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article analyzes the civil-legal regime of the invention. The proposed research provides a complete picture of the concept of the invention, the content of the legal regime, existing principles, trends in the development of relations associated with the invention. In recent years, the trend of creating intellectual property in Uzbekistan and issuing legal protection documents (patents) shows the lack of legal protection for the copyright holder. At the same time, the conditions for the patentability of an invention and the complexity of the conditions for issuing a title of protection complicate the implementation of legal protection. In exercising their rights, copyright holders ineffectively use opportunities to protect not only national legislation but also international legal norms. An analysis of the legal regime of an invention shows that an invention in Uzbekistan can be adequately protected by the application of specific legal measures and mechanisms. For the legislative regulation of these issues, it is necessary to bring the legislation of Uzbekistan in the field of intellectual property in line with international requirements and ensure the protection of the right to inventions. The author firmly adheres to the position that the main direction in the search for a legal solution to these issues should be the use of information technology, artificial intelligence. The article also examines the scientific views of scientists, the strategy of the legislation of the Republic of Uzbekistan in the period of innovative development, the settlement of disputes over inventions. In conclusion, the author draws certain conclusions.

Keywords: intellectual property, industrial property, legal regime, invention, utility model, industrial design, exclusive right, court dispute, improvement of legislation.

Kirish

Jahonda insoniyat rivoji va taraqqiyotida vu-judga keladigan muammolarni samarali hal qilishda intellektual mulk obyektlari alohida o'r'in egal-laydi. Ushbu obyektlarni huquqiy muhofaza qilish, muomalada bo'lislini ta'minlash tabiiyki alohida tadqiqotni talab qiladi.

Intellektual mulk obyektlari orasida patent huquqi bilan himoya qilinadigan sanoat mulki obyektlari alohida o'r'in egallaydi. COVID-19 pandemiysi sharoitida turli davlatlarda milliy hamda global miqyosda yaratilayotgan vaksinalar ushbu muammoni samarali hal qilishda yordam bermoq-da. Intellektual mulkning ushbu obyektlari ham huquqiy, ham texnik bilimlarni talab qiladi. Shu boisdan sanoat mulki obyektlarining asosiysi – ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimini aniqlash dol-zarb ahamiyatga ega.

Bir qarashda sanoat mulki huquqi intellektual mulk huquqiga doir qonunchilik bilan tartibga solinadi va u bilan bog'liq muammo uchramay-digandek ko'rindi. Biroq bugungi rivojlanish, yangi texnologiyalarning yaratilishi, qo'llanilishi va keng doirada undan foydalanish sanoat mulki huquqi obyekti tushunchasi va mohiyatini belgi-

lashni va unga doir munosabatlarni samarali tar-tibga solishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Dunyo tajribasida intellektual mulk obyektlari, xususan, ixtirolarni huquqiy muhofaza ostiga olinishi bevosita intellektual mulk haqidagi doktrinalarning yaratilishi bilan bog'liq. Yaratilgan ixtiroga nisbatan alohida huquqiy himoyaning berilishi kelgusida yangi obyektlarning yaratilishiga olib kelgan. Natijada ixtironing ijodkori, yaratuv-chi shaxslarga alohida huquqiy rejim yaratish zarurati vujudga kelgan. Zero, ixtiroga nisbatan olingan huquqiy muhofaza yorlig'i kelgusida huquq egasiga ustuvorlik, afzalliklar bergen.

Ixtiro muayyan mezon asosida huquqiy muhofaza ostiga olinadi. Ayrim ixtiolar insoniylik, hayot tarzi, turmushda foydalanish nuqtayi nazari-dan himoya qilinmasligi ham mumkin. Masalan, jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar ixtiro sifatida e'tirof etil-maydi [1].

Ayrim mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsata-diki, yirik kompaniyalar tegishli litsenziyalarni olishda ustuvorlikni qo'lga kiritish maqsadida yangi ixtirolarga doir innovatsion axborotlarni

doimiy ravishda kuzatib bormoqda [2; 53-b.]. Yangi texnologiyalarni huquqiy himoya qilish uchun o'ziga xos erkinlikni ham taklif qiladi hamda qonunchilikda ixtiro tushunchasini keng doirada talqin qilishni nazarda tutadi [3].

Ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi MDH va o'zbek olimlari tomonidan kam o'rganilgan. Bunguni real holat, global raqobat sharoitida ixtironing huquqiy rejimiga doir muammolar yetarlicha huquqiy tahlil qilinmagan.

Xorijiy davlatlar olimlari mazkur masalada uzoq yillardan buyon tadqiqotlar olib bormoqda. Xusan, A.P. Sergeyev [4, 202-b.]. Y.A. Suxanov [5, 464-b.] Xavier Seuba [6] Alexandra George [7] Limeng Yu [8] va boshqalarning tadqiqot natijalari ommaga havola qilingan. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) [9] bu borada turli mavzularda konferensiyalar, kollokviumlar, kurslar tashkil etib ushbu sohada doimiy ravishda amaliy ishlardan olib bormoqda.

Mazkur sohada sohalararo o'tkazilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi sharoitda intellektual mulkning har bir obyekti alohida tadqiq etilmoqda. Intellektual mulk huquqi ommaviy huquq hamda xususiy huquqiy tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biriga aylangan.

Bundan tashqari, Xavier Seuba tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda intellektual mulk huquqining himoyasi bilan shug'ullanadigan xalqaro norma va organlarning qat'iy tavsifini berish taklif qilinadi. Tadqiqot bevosita ko'p taraflama, ikki tomonlama shartnomalarni milliy miqyosda ijro qilish, fuqarolik huquqiy, xalqaro xususiy huquqiy, jinoyat qonunchilikida tatbiq etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqini ta'minlash xalqaro tijorat, raqobat va inson huquqlari sohasida, shuningdek, ushbu huquqlarga rioya qilishning konseptual jihatlarini sud jarayonlarida tatbiq etish muhimligini ko'rsatib beradi [10].

Deshpande Rohan, Kamath Karan tadqiqotida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtiroga nisbatan huquqlar uning yaratuvchisiga tegishli bo'lishiga doir masalalar Hindiston huquqi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Unda mualliflar sun'iy intellektga huquq berilishi tegishli majburiyatlarga hamda majburiyatlarni ixtirochi yoki huquq egasiga yuklashning huquqqa mosligini ko'taradi deb ko'rsatadi. Patent idoralari sun'iy intellekt tomonidan ixtironi yaratishiga, ixtiroching insofiligini aniqlashga doir murakkab

masalalarni aniqlash uchun tegishli texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi zarur [11] degan xulosalarga keladi.

Ryan Abbott tadqiqot ishida patent bilan muhofaza qilinadigan obyektlar doirasining kengayishiga alohida e'tibor qaratadi. Unda ko'rsatilishicha, dastlabki vaqtarda inson geniga doir patent berishlar rad etilgan bo'lsa, 2013-yildan keyin bu ko'rsatkich o'zgarganligini va patent berish jarayoni mavjudligini ko'rsatadi. Patent huquqi rioya qiladigan prinsiplar rivojlantirilishi hamda ixtiro algoritmini yangicha qayta ko'rib chiqish zarur. Biz ushbu yangi texnologiyalarga doir o'z maqsadimizni aniqlashimiz, dunyo qanday bo'lishini tasavvur etishimiz va qonun qanday qilib bunga yordam berishi mumkin degan savolarni qo'yishni xulosa qiladi [12, 339–373-b.].

Aksariyat tadqiqot ishlarida ixtironi huquqiy muhofaza qilishda sun'iy intellektdan foydalanish, axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash, huquq egasining vakolatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston, umuman Markaziy Osiyo davlatlarida ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi masalasi, ushbu sohadagi qonunchilikni qo'llashda yuzaga keladigan muammolar shu kunga qadar muayyan konseptual nuqtayi nazaridan, yangicha yondashuv asosida nazarli va amaliy jihatdan tadqiq etilmagan.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida to'rtta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, ixtironing huquqiy rejimini aniqlashga doir qonunchilik qay darajada samarali; ikkinchi, ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti qay darajada shakllandii; uchinchi, qonunchilikdagi bo'shliqlarni xalqaro tajriba asosida to'ldirish zarurati mavjudmi, to'rtinchi, kelajakda ixtironing patentga layoqatliligi qanday aniqlanadi.

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik nuqtayi nazarli ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Ushbu maqola ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimini aniqlashning konseptual, nazarli va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Intellektual mulk huquqi, shu jumladan, sanoat mulk huquqi obyektlarini huquqiy tartibga solishga doir xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish mazkur sohani tartibga solish tizimini takomillashtirishga bo'lgan qiziqishni ham ko'rsatadi. Intellektual mulkning muayyan yangi obyektlari, ayniqsa, texnologiya, ular bilan bog'liq sanoat mulki obyektlari rivojlangan mamlakatlarda yaratiladi. Ularni huquqiy ta'minlash ham ilk bora xorijda aprobatsiyadan o'tishi tabiiy. Bu esa, muayyan bir davlat miqyosida tor doirada huquqiy tartibga solishni istisno etadi. Shu boisdan, "har doim velosiped ixtiro qilgandan ko'ra xorijda yaratilgan "Qulay velosiped modelini", ya'ni huquqiy konstruksiyani milliy tizimga kiritish qulayroq" bo'lishi tabiiy [13, 300-b.] Mazkur tadqiqot mavzusi ham aynan shu qoidadan kelib, xalqaro tajribada qay darajada sinovdan o'tgan masalalar bo'yicha milliy qonunchilikda yechim topish bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy rejim tushunchasi juda keng ma'noga ega bo'lib, ushbu ibora aslida "*regimen*" lotinchanidan olingan bo'lib, boshqarish ma'nosida qo'llanigan hamda u yoki bu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan qoidalar, chora-tadbirlar tizimini anglatadi. S. S. Alekseyev ushbu iborani umumiy tushunchada o'zaro alohida uyg'unlashgan holda ruxsat etilgan va taqiqlangan (shuningdek, ijobiy burchlar)ni huquqiy vositalar majmuida ifodalovchi tartibga solishni anglatadi [14, 334-b.] deb hisoblaydi. N.I. Matuzov va A.V. Malko huquqiy rejim huquqiy vositalarning muayyan uyg'unligida ko'rildigani alohida tartibga solish hamda kutilgan ijtimoiy holatni va aniq darajadagi ijobiy yoki salbiy holatning aniq darajasini ko'rsatadi [15, 17-b.] deb ta'kidlaydi.

G.S. Belyayevning fikricha, huquqiy rejim huquqiy vositalar va huquqiy tartibga solish usullari muayyan uyg'unligiga asoslangan, huquq subyektlari uchun qulay (noqulay) sharoitlarni yaratish yo'li bilan ularning manfaatlarini qanoatlanishiga, optimal ijtimoiy tartibga erishishga qaratilgan, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi alohida tartib, kafolatlar va prinsiplar hisoblanadi [16, 22-25-b.].

S. Xannashi fuqarolik-huquqiy rejim borasida alohida tadqiqot olib borib, fuqarolik-huquqiy rejimni dispozitiv xarakterga ega bo'lgan, huquqiy vositalarning ixtisoslashgan uyg'unligiga asoslan-

gan (shu jumladan, huquqiy tartibga solishning umum ruxsat etilgan usullari) mulkiy va shaxsiy nomulkiy xususiyatga ega ijtimoiy munosabatlarni alohida tartibga solinishi sifatida e'tirof etadi [17, 5-7-b.].

Y.A. Suxanovning ta'kidlashicha, fuqarolik-huquqiy rejim obyektlarga nisbatan muayyan harakat (bitim)ni sodir etish imkoniyatini beradi yoki buni inkor etadi va buning natijasida ma'lum huquqiy (fuqarolik-huquqiy) natija keltirib chiqaradi [18, 295-b.]. Demak, huquqiy rejim o'rnatilgan qoida bo'lib, huquqiy normalar asosida amal qiladi hamda huquqiy mexanizm bilan ta'minlanadi.

Parij konvensiyasi sanoat mulkini keng ma'nda talqin etib, sanoat mulkining muhfaza obyektlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1) ixtiolar; 2) foydali modellar; 3) sanoat namunalari; 4) tovar belgilari; 5) xizmat ko'rsatish belgilari; 6) firma nomi; 7) geografik nomlar; 8) tovarni kelib chiqish joyi nomi; 9) g'irrom raqobatning oldini olish (1, 2 modda). Bundan kelib chiqadiki, vaqt o'tishi bilan sanoat mulki obyektlari doirasi muayyan darajada kengaygan. Go'yoki sanoat mulki obyektlari doirasi uning mazmun-mohiyatiga mos kelmaydigandek ko'rindi. Hozirgi kunda ham sanoat mulki obyektlarining ushbu turlari Parij konvensiyasi mazmunida saqlanib qolgan. Demak, sanoat mulki obyekti keng ma'noda tushunilishi qabul qilingan va u nafaqat sanoat, balki tijorat, qishloq xo'jaligi, qazish sanoati sohalari, shuningdek, har qanday sanoat yoki tabiiy ishlab chiqariladigan mahsulotlar – vino, don, tamaki, gul, un, kimyo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa sohalarni ham qamrab oladi.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

O'zbekiston Respublikasi yuqoridagi konvensiya a'zosi hisoblanadi va tabiiyki, o'zining milliy qonunchiliginu unda belgilangan talablarga moslashtirishga harakat qilgan. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagagi "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunida ikki tomonlama yondashuv kuzatiladi. Bu o'rinda qonun chiqaruvchi "ixtiro, foydali model va sanoat namunasi" tushunchalarini ayniy tushuncha sifatida ifodalaydi. Qonunning nomlanishidagi sanoat mulki obyektlari sifatida ixtiro, foydali model va sanoat namunasi sanab o'tilgan va ushbu holat qonunning bir qator (6, 7, 8 va boshqa) moddalarida normalan-

gan. Qonunning 2-moddasida esa, sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir deb belgilanadi va "sanoat mulki obyekti" iborasi boshqa (2, 3, 4, 5, 9–11 va boshqa) moddalarida ham qo'llaniladi.

Bu o'rinda sanoat mulki obyekti sifatida nima tan olinadi? degan o'rinali savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasining "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuning 6-moddasiga ko'ra, har qanday sohada mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtammi, o'simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlariga) hamda usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy obyekt ustida xatti-harakatlarni amalga oshirish jarayoniga) taalluqli bo'lgan texnik yechim ixtiro sifatida e'tirof etiladi. Demak, bu o'rinda mahsulot hamda usulga nisbatan ixtiro huquqiy muhofaza ostiga olinadi. Xuddi shunday talab foydali modelga nisbatan ham qo'llaniladi. Bunda patentga layoqatilik sharti bo'yicha ushbu sanoat mulki obyektlari farqlanadi. Sanoat namunasi esa buyumning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan badiiy-konstrukturlik yechimi bo'lmosi zarur.

Huquq sohalari orasida an'anaviy huquq sohalari asosiy o'rin egallaydi. Masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va h.k. Biroq biopatent huquqi alohida huquq sohasiga da'vo qilinishida uning huquqiy metodologiyasi, tartibga solish predmeti va metodi, tizimi mavjud bo'lishi va tan olinishi zarur. Boshqa tarafdan esa huquq instituti sifatida e'tirof etilishi uchun muayyan yuridik normalar tizimida o'zaro bog'langan normalar guruhi bo'lishi lozim. Huquqiy institut muayyan munosabatlar turini tartibga soluvchi nisbatan kichik bo'lgan barqaror huquqiy normalar guruhi, ijtimoiy munosabatlarning o'z mazmuniga ko'ra o'xshash va yaqin muayyan bir turini tartibga soladigan huquq normalari guruhidan iborat bo'ladi [19, 541-b.]. Shu boisdan, intellektual mulk obyekti muayyan institut doirasida o'rganiladigan obyekti alohida huquq sohasi sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

AQShda patent olishga doir huquqiy munosabatlar AQSh federal qonunchiligi kodeksi 35- (Patents) va 17-bo'lmlari (Copyrights) bilan tartibga solinadi. Boshqa ayrim mamlakatlardan farqli ravishda AQShda texnik yechim faqat ixtiro sifatida patentlanishi mumkin. Bunda ixtiro jar-

yon, mashina (mexanizm), ishlab chiqarish usuli, materiya tarkibi yoki ularning yaxshilanishi tushuniladi [20].

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2015-yilda asosan 10 ta davlat patent idorasi tomonidan talabnomalar berilgan. Bunda AQSh va Germaniya dastlabki o'rnlarni egal-lagan [21]. Dunyo bo'yicha 2019-yilda 3 226 100 ta patentga talabnoma berilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 3 276 700 tani tashkil qilgan va o'sish sur'ati 1,6 foizni tashkil qilgan [22] 2009-, 2014-, 2019-yillarda berilgan patent talabnomalari elektr injeneriyasi, mahsulotlar, kimyo, mexanik injeneriya hamda boshqalardan iborat bo'lgan. So'nggi yillarda xususan 2017–2019-yillarda audiovizual texnologiya, telekommunikatsiya, raqamli texnologiya, kompyuter texnologiyasi, boshqaruvda IT metodlari, biotexnologiya, farmatsevtika kabi sohalarda patent talabnomalari berilishi o'sganligini ko'rish mumkin [23], Albatta, ushbu ko'rsatkichning o'sishi iqtisodiy, ijtimoiy muammolar sharoitida erishilgan muhim ilmiy natija sifatida baholanishi zarur.

2018-yilda patent, tovar belgilari va sanoat namunalariga nisbatan so'rалган talabnomalarining uchdan ikki qismi Osiyo mamlakatlari hisobiga to'g'ri kelgan. Bunda Xitoyning o'zi tomonidan so'rалган patentlar soni (1,54 million) butun dunyo ko'rsatkichining deyarli yarmi to'g'ri kelgan. Mazkur yilda novatorlar tomonidan jami 3,3 million patent talabnomalari berilgan va to'qqiz yillik o'sish tendensiya o'zgarmasdan qolgan va u 5,2 foizni ko'rsatgan. 2018-yilda amaldagi patentlar 6,7 foizga o'sgan va 14 millionni tashkil etgan. Shundan deyarli 3,1 million patent AQShda amal qilgan, keyingi o'rnlarda Xitoy (2,4 million) va Yaponiya (2,1 million) turadi. AQShda amalda bo'lgan patentlarning aksariyati chet eldan kelganligi kuzatilgan [24].

Sud amaliyoti borasida Xitoy Xalq Respublikasi tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, da'vogar – Giesecke & Devrient (China) Information Technologies Co., Ltd. Javobgar – China National Intellectual Property Administration nisbatan da'vo ariza kiritilgan. Da'vogar foydali modelga nisbatan (A Financial Trading Card with 3D Printed Graphic Surface" (Patent No.: 201520879638.7) patentga talabnoma bergan. Giesecke & Devrient patent egasi bo'lib, Gemalto & Hou uchinchi shaxs

sifatida da'vogar tomonidan ixtiro formulasida patent to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilinma-ganligi sababli berilgan patentni haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Qayta ekspertiza o'tkazish natijasida ixtironing formulasi ijodiylik xususiyatiga ega emasligi va qonunchilikda belgilangan talabga muvofiq kelmasligi aniqlangan va barcha patentni haqiqiy emas deb topishni talab qilgan. Sud ushbu talablarni qanoatlantirish haqida qaror qilgan. O'z navbatida, Giesecke & Devrient ushbu qarorga norozilik bildirib, intellektual mulk bo'yicha Pekin sudiga murojaat qilib, qarorni bekor qilishni va qayta ko'rib chiqishni talab qilgan. Sud esa ushbu talablarni qanoatlantirishni rad qilgan [25].

Bundan ko'rindiki, patent to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilmaslik yoki qonunga zid ravishda olingen huquqiy muhofaza hujjati – patent tegishli ekspertiza natijasida haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, patent egasi uchun muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi.

Milliy statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sanoat mulkining muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi ixtirolarga nisbatan 2015-yilda milliy talabnomalar 288 ta, xalqaro talabnomalar 219 ta, 2016-yilda milliy talabnomalar 353 ta, xalqaro talabnomalar 202 ta, 2017-yilda milliy talabnomalar 357 ta, xalqaro talabnomalar 196 ta, 2018-yilda milliy talabnomalar 470 ta, xalqaro talabnomalar 180 ta, 2019-yilda milliy talabnomalar 374 ta, xalqaro talabnomalar 169 ta, 2020-yilda milliy talabnomalar 356 ta, xalqaro talabnomalar 232 tani tashkil etgan [26].

Yuqoridagi ko'rsatkichdan shu holat anglashiladiki, pandemiya ijod erkinligini namoyish qilishga, yangi intellektual mulk obyektlarini yaratish va huquqiy muhofaza hujjatlarini olishga bo'lgan intilishga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shunday bo'lsa-da, ixtironing inson taraqqiyotidagi o'rni tobora ortib borayotgan sharoitda unga doir huquqiy muhofazalash, huquq egalarining manfaatlarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

RFda tibbiy davolanish maqsadlarida biotibbiyot mahsulotlarini muomalasini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilingan [27]. Bu qonun biotexnologiya sohasini tartibga soluvchi muhim tartibga solish yukiga ega bo'lgan qonun sifatida ko'riliши mumkin. Biroq yangi biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqarish, aprobatasiyadan o'tkazish, uni qo'llash bevosita inson omili bilan

bog'liq. Uning sinovdan o'tishi uchun muayyan inson resurslari safarbar etiladi. Mazkur jarayonda insonning ishtiroki ixtiyoriylik prinsipiiga asoslanishi, xavfsizlik tizimi qo'llanilishi zaruriy shart.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasida insonni obyekt sifatida jalg etib, biologik-tibbiy tadqiqot o'tkazishga faqat laboratoriya tajribalari o'tkazilganidan va fuqaroning yozma roziligi olinganidan keyingina davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida yo'l qo'yishiga doir muhim prinsip belgilab qo'yilgan [28].

Qayd etish lozimki, rivojlangan mamlakatlarda biotibbiyotga doir tadqiqotlar asosiy o'rinni egallamoqda. Olingen natijalar esa yirik daromad keltirishi bilan bir qatorda huquqiy tartibga solish tizimiga ham ega. Bu borada alohida xalqaro darajada qabul qilingan hujjatlar ham mavjud [29].

Kam ahamiyatli ixtiolar va inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan ixtirolarga nisbatan bir xil yondashuv bo'lishi to'g'rimi? Avvalo, har qanday patent egasi, o'zining mutlaq huquqni qo'lga kiritishi orqali bozorda monopol mavqeni ta'minlash va ko'p foyda olishni ko'zlaydi. Boshqa tarafdan esa, raqobatchilarning ishlab chiqarish va bozorda huquqining yo'qligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Bu borada huquq egasining o'zi erk-irodasi asosida mazkur masalaga yondashadi.

Sanoat mulki obyekti haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi, asosan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, patentlar olimlarni sanoatchilar bilan hamkorlik qilishga undaydi. Bu borada muayyan tajribalar ham yaratilgan. Jumladan, dastlabki yarim sintetik penitsillin ishlab chiqarishda aynan shunday holat kuzatilgan. Sheyxan (huquq egasi)ning patent olishga bo'lgan motivi *Bristol Laboratories* bilan hamkorlik qilish bo'lgan. *Beecham* kompaniyasida patent muhofazasining mavjudligi *Bristol Laboratories* kompaniyasiga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish sirlari nou-xou bilan o'rtoqlashishga ko'ndirishga urintirgan. Biroq ushbu harakat natija bermag'an va ular o'rtasida uzoq muddatli nizo ko'rib chiqilgan [30].

Yuqoridagilardan ko'rindiki, inqilobiy ixtiolar tez va ko'p xarajatlarsiz, asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan. Huquq egasida patent mavjud bo'lsa-da, muayyan doirani qam-

rab olishga xalaqit bermagan. Fleming tomonidan penitsillining yaratilishi ham bu kabi obyektni patentlanmasligiga olib keldi. Patentlash jarayonining mavjud bo'lmasligi esa dorilarni tez tarqalishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda sun'iy intellektga asoslangan sanoat mulki obyektlariga huquqiy muhofaza hujjatlarini olish jarayoni keng kuzatilmogda. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1998-yildan sun'iy intellekt sohasida doimiy o'sish kuzatilgan. Har yili 2012-yildan boshlab to 2017-yilgacha 103 ta kompaniya mutlaq huquqni qo'lga kiritgan.

Alphabet kompaniyasi (uning portfeliga *Google*, *DeepMind*, *Waymo* va *X Development* kiradi), ixtirolarga beriladigan talabnomalar (3 814 ta) bo'yicha faqatgina 10-o'rinni egallaydi va sun'iy intellekt sohasida huquqiy muhofaza olgan kompaniyalarning yetakchisi hisoblanadi. *Apple* va *Microsoft* kompaniyalari ham boshqa tashkilotlar va ularga tegishli huquqlarni xarid qilish bilan faol shug'ullanishgan. *IBM* va *Intel* kabi kompaniyalar asosiy e'tiborini yetuk kompaniyalarga qaratgan bo'lsa-da, olin-gan kompaniyalar – startaplar hisoblanadi va ularning ba'zilarining potfeli patentlar bo'lsa, boshqalarida hech qanday huquqiy muhofaza hujjatlari bo'lmanan. Bu degani, kompaniyalar xarid qilishning asosiy maqsadi muayyan aktivlarni, professional kadrlarni, shuningdek, ma'lumotlar bazasi, nou-xau va boshqa intellektual mulk huquqlarini qo'lga kiritish hisoblanadi [31].

Hozirgi vaqtida intellektual mulk huquqi sohasidagi mavjud muammolardan biri bu intellektual mulkning mavjud tizimiga asoslanuvchi transparentlik prinsipi bilan bevosita bog'liq. Haqiqatan ham huquqiy muhofaza hujjati talab qilinmasa-da (masalan, mualliflik huquqiy himoya obyektiga), har qanday subyekt istalgan intellektual mulk obyektiga nisbatan huquqiy muhofaza hujjatini olishi mumkin. Bunda sanoat mulki obyektiga nisbatan huquqiy muhofaza hujjatini olishning muayyan shartlari mavjud. Avvalo, talabgor yangi texnologiya, yangi buyum yoki yangi xizmatga nisbatan axborotni oshkor qilishi zarur. Bu degani, boshqa shaxslar texnologiyani, buyum yoki xizmatni kimga tegishliligi hamda u bilan bog'liq huquqlar haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Bunday yondashuv o'ziga xos o'rinn tutadi. Chunki, asosiy maqsad mavjud huquqlarni samarali ayrbosh-

lash va ulardan texnologiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy taraqqiyot maqsadida faol foydalanishga imkon berishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, intellektual mulk tizimining muhim jihatni bo'lib transparentlik hisoblanadi. Bir qator yangi texnologiyalar, kripto aktiv, kripto valyuta, elektron to'lovlar, "blokcheyn" kabi yangi texnologiyalarning vujudga kelishi tegishli yozuvlarni, ma'lumotlarni saqlay oladigan mukammal tizim mavjud bo'lishini taqazo etadi. Bu esa davlat hamda xususiy soha chegarasini butunlay yo'q qilib yuborishi mumkin.

Ixtirochilik huquqi – yangi, ixtirochilik darrasidagi, sanoatda qo'llash mumkin bo'lgan va huquqiy muhofaza qilinadigan patent berish orqali rasmiylashtirilgan obyektga bo'lgan muallif (ixtirochi)ning huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquq normalari yig'indisi. Ixtirochilik huquqi maxsus huquqiy institut, tizimlashtirilgan yuridik normalar sifatida O'zbekistonda 20-asrning 20-yillari boshlaridan boshlab namoyon bo'lgan. Ko'pgina adabiyotlarda patent huquqi deb ham nomlanadi. Ixtirochilik huquqini adabiyotlarda hamda huquq amaliyotida fuqarolik huquqining o'ziga xos kichik tarmog'i (podotrasl) va hatto fuqarolik huquqi instituti sifatida qarash konsepsiysiada nazariy jihatdan olganda mukammallik yo'q, chunki u ixtirochilik munosabatlari huquqining boshqa tarmoqlari bilan ham tartibga solinadi [32].

Yuridik adabiyotlarda patent huquqi mustaqil huquqiy institatlarni birlashtirishi qayd etiladi. Bular patent (ixtiro) huquqi va sanoat dizayni (namunasi) huquqi, shuningdek, intellektual huquqlarni himoya qilish nuqtayi nazaridan unga yaqin bo'lgan seleksiya yutuqlari hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farq himoya ostidagi obyektning mohiyati bilan belgilanadi. Bunda foydali model ixtironing bir alohida turi sifatida ko'rildi [33, 315-b.].

O'zbek tilining izohli lug'atida ko'rsatilishi-chi, ixtiro – yangilik, yangilik yaratish, o'ylab chiqarish ma'nosini beradi. Fan-texnika sohasida kashf etilgan, ijobjiy samara beradigan yangilik, kashfiyot [34, 247-b.].

A. Raxmatovning fikricha, patent egasi huquqining mutlaqlik xususiyati uni mulk huquqi-

ga yaqinlashtiradi. Patent egasi huquqining tarkibi mulk huquqi bilan o'xshashligi patent huquqi faniga patent egasining huquqini xilma-xil huquq sifatida ko'rib chiqishga sabab bo'lди [35]. Biroq garchi intellektual mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqiga yaqin bo'lgan nazariyalar mavjud bo'lsa-da, har doim ham mustasno huquq konsepsiya mos kelmaydi.

Xulosalar

Ixtironing fuqarolik-huquqiy rejimi fuqarolik qonunchiligidagi o'rnatilgan qoidalar yig'indisi bo'lib, huquqiy rejim huquqiy normalar vositasida amal qiladi hamda huquqiy mexanizm bilan amalda ta'minlanadi. Huquqiy rejim bevosita fuqarolik muomalasida bo'lish yoki bo'lmaslik, huquqiy himoya (patentga layoqatlilik) shartlarining mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi, huquq egasiga alohida ustuvorlik berish zaruratini o'zida ifodalaydi. Sun'iy intellektning ushbu sohaga tatbiq etilishi ixtironing patentga layoqatlilagini aniqlash, o'xshash (analog)larni topish va taqqoslash, qaysi davlat hududida patent olish imkoniyati samarali bo'lishini baholashga imkon beradi.

Bugungi kunda sanoat mulki obyektlariga nisbatan qo'llaniladigan doktrinalardan biri bu – Fair use – “insofli foydalanish” doktrinasidir. Ushbu doktrina jahoning yetakchi davlatlari qonunchiligiga singdirilgan bo'lib, muayyan holatlarda mualliflik huquqi egasining roziligidisiz va unga haq to'lamagan holda, tanqid, yangiliklar hisoboti, ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarida so'zma-so'z havola olishga imkon beradi. Mazkur prinsip milliy qonunchiligimizga ham singdirilgan. Ixtiroga nisbatan huquqiy himoyaning mudatlıligi ushbu prinsipni ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Ixtiro, odatda, texnik muammoning ijodiy yechimi sifatida namoyon bo'ladi. Ijod qilish esa faqat insonga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Shu boisdan, inson ishtirokisiz kechadigan jarayonlar, mahsulotlar ixtiro sifatida tan olinmaydi. Masalan, yerga tushgan meteorit (tabiiy mahsulot) yoki shimoliy qutb yog'dusi (tabiiy hodisa) ixtiro hisoblanmaydi.

Shu bilan birga, ixtiro predmeti tabiiy analogga mos bo'lgan, biroq sun'iy ravishda yaratiladi-

gan mahsulot bo'lishi mumkin. Masalan, tabiiy sut mahsuloti mavjud bo'lsa-da, uni ishlab chiqarish texnologiyasining ixtiro qilinishi. Bunda ishlab chiqarish usuliga berilgan patent mahsulotning o'ziga nisbatan ham tatbiq qilinadi.

Ayrim hollarda huquqni qo'llash amaliyotida nizoni hal qilish jarayonida intellektual mulkda qo'llaniladigan qoida, prinsiplarni bilmaslik holatlari ham kuzatiladi. O. Oqyulovning ta'kidlasicha, sudlar mutlaq huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni huquq egasining mutlaq huquqni tasarruf etishi emas, balki mutlaq huquqdan foydalanish vakolatini amalga oshirish sifatida talqin etib, xorijiy investorlar ko'z o'ngida mamlakatda investitsiya jozibadorligi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdilar [36]. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat nizodagi taraflarning huquqlarini himoyasini samarali ta'minlash, balki manfaatdor shaxslarga tizimli ta'sir ko'rsatishga olib kelishi mumkin.

Qonunchilikda sanoat mulki obyektlarini, xususan, ixtironing fuqarolik muomalasida bo'lishiga doir talablar yetarli emas. Bu, o'z navbatida, huquq egalarining mustasno huquqlarini amalga oshirish va tasarruf etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida”gi Qonunida quyidagi mazmunda alohida bob kiritish maqsadga muvofiq:

“VI¹. Sanoat mulki obyektlariga nisbatan mustasno huquqni tasarruf etish.

33¹-modda. Sanoat mulki obyektlariga nisbatan mustasno huquqni tasarruf etishga doir shartnoma.

Sanoat mulki obyektlariga nisbatan mustasno huquqni tasarruf etishga doir shartnoma (patentni tasarruf etish shartnmoasi)ga muvofiq, bir taraf (patent egasi) o'ziga tegishli bo'lgan muayyan intellektual faoliyat natijasi (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi)ga nisbatan mustasno huquqni to'la hajmda boshqa taraf – mutlaq huquqni oluvchi (patentni oluvchi)ga topshiradi yoki topshirish majburiyatini oladi.

Sanoat namunasiga nisbatan mustasno huquqni, agar bu iste'molchini muayyan tovar yoki uni ishlab chiqaruvchisi borasida chalg'ishiga olib kelsa, huquqni tasarruf etishga yo'l qo'yilaydi”.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Inventions, Utility Models and Industrial Designs"]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi – Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2002, no. 9, Art. 158.
2. Li Y. Imitation to Innovation in China. Cheltenham, UK: Edward Elgar, 2010, p.53.
3. Standing Committee of the National Peoples Congress. Patent Law, Order No. 8 of the Chairman of the Peoples Republic of China.
4. Sergeev A.P. Patentnoe pravo. Uchebnoe posobie [Patent law. Tutorial]. Moscow, BEK Publ., 1994, 202 p.
5. Grajdanskoe pravo. Uchebnik v 4 t. Otv. red. Y. A. Suhanov. 2-e izd., pererab. i dop. Veshnoe pravo. Nasledstvennoe pravo. Intellektualnie prava. Lichnie neimushestvennie prava [Civil law. Textbook in 4 t. Responsible. ed. I. A. Sukhanov. 2nd ed., revised. and add. Property law. Inheritance law. Intellectual rights. Moral rights]. Moscow, Statut, 2019, vol. 2, 464 p.
6. Seuba H. The Global Regime for the Enforcement of Intellectual Property Rights. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms/>. DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108231510/>.
7. George A. Constructing Intellectual Property. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms>. DOI: <https://doi.org/10.1017/CBO9781139035361/>.
8. Limeng Y. Industry-Specific Study of Patent Law and Innovation in Chinas Telecommunications Industry. Available at: [www.cambridge.org/core/terms/](https://www.cambridge.org/core/terms). DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108163583.007/>.
9. World Intellectual Property Indicators Report: Worldwide Trademark Filing Soars in 2020 Despite Global Pandemic. Available at: [https://www.wipo.int/portal/en/index.html/](https://www.wipo.int/portal/en/index.html).
10. Seuba H. The Global Regime for the Enforcement of Intellectual Property Rights. Available at: [https://www.cambridge.org/core/terms/](https://www.cambridge.org/core/terms). DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108231510/>.
11. Patentability of inventions created by AI – the DABUS claims from an Indian perspective. Journal of Intellectual Property Law & Practice, 2020, no. 11. DOI: 10.1093/jiplp/jpa146/.
12. Abbott R. Inventive Algorithms and the Evolving Nature of Innovation. The Cambridge Handbook of the Law of Algorithms , pp. 339-373. DOI: <https://doi.org/10.1017/9781108680844.017/>.
13. Okyulov O. Issues of increasing the effectiveness of the impact of intellectual property law institutions in ensuring the development of innovation. Tashkent, Turon Zamin Ziyo Publ., 2016, 300 p.
14. Alekseev S.S. Voshozhdenie k pravu. Poiski i reshenija [Rise to the right. Searches and solutions]. Moscow, NORMA Publ., 2001, p. 334.
15. Matuzov N.I., Malko A.V. Pravovie rejimi: voprosi teorii i praktiki [Legal Regimes: Issues of Theory and Practice]. Pravovedenie – Jurisprudence, 1996, no. 1, p. 17.
16. Belyaeva G. K voprosu o razgranichenii pravovogo rejima i inix smeijnix yuridicheskix kategoriy [On the issue of delimitation of the legal regime and other related legal categories]. Gosudarstvenniy sovetnik – State Councilor, 2013, no. 4, pp. 22–25.
17. Hannashi S. K voprosu o sushnosti grajdansko-pravovogo rejima [To the question of the essence of the civil law regime]. Gosudarstvennyi sovetnik – State Councilor, 2014, no. 4 (8), pp. 5–7.
18. Grajdanskoe pravo. Uchebnik v 2-h tomah. Pod red. E.A. Suhanova [Civil law. Uchebnik v 2-h tomah. Under red. E.A. Suhanova]. Vol. 1, 295 p.
19. Matuzov N.I., Malko A.V. Theory of Government and Rights. 2nd ed. Moscow, Jurist, 2005, 541 p.
20. United States Code Title 35 – Patents, Current as of August 31, 2017. Available at: [https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated_laws.pdf/](https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated_laws.pdf).
21. WIPO, World Intellectual Property Indicators 2016. Available at: [www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_941_2016.pdf/](http://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_941_2016.pdf).
22. The annual World Intellectual Property Indicators Report (WIPI) and China's IP boom. Available at: [https://ipkitten.blogspot.com/2021/11/the-annual-world-intellectual-property.html/](https://ipkitten.blogspot.com/2021/11/the-annual-world-intellectual-property.html).
23. World Intellectual Property Indicators 2021. Available at: [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_941_2021.pdf/](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_941_2021.pdf).
24. China's top 20 patent cases of 2020: Giesecke & Devrient v. CNIPA. Available at: <http://www.chinaipmagazine.com/en/journal-show.asp?id=1798/>.
25. Intellektual mulk agentligi [Intellectual Property Agency]. Available at: <https://my.ima.uz/>.
26. Federal Law of June 23, 2016 N 180-FZ "On Biomedical Cell Products". Russian newspaper – Federal issue, June 28, 2016, no. 139 (7007).

27. Law of the Republic of Uzbekistan on Public Health. Available at: <https://www.lex.uz/acts/26013/>.
28. Universal Declaration on the Human Genome and Human Rights of 11 Nov. 1997. Available at: <http://new.iacis.ru/activities/documents> (29. https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2019/article_0012.html/).
30. Doklad o polojenii v oblasti intellektualnoy sobstvennosti v mire. Revolyutsionnie innovatsii i ekonomicheskiy rost [Report on the state of intellectual property in the world. Revolutionary innovation and economic growth]. WIPO, 2015, pp. 71-72. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/ru/wipo_pub_944_2015.pdf/.
31. Frensis Garri o budushem intellektualnoy sobstvennosti: vozmojnosti i problemi. Sentabr 2017. Doklad VOIS 2019 g. Tendentsii razvitiya texnologii. Kratkoe izlojenie Iskusstvenniy intellekt [Francis Gurry on the Future of Intellectual Property: Opportunities and Challenges. September 2017 WIPO 2019 Technology Trends Report Executive Summary Artificial Intelligence]. P. 11. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/ru/wipo_pub_1055_exec_summary.pdf/.
32. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Encyclopedia of Law of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2009, p. 224.
33. Grajdanskoe pravo. Uchebnik v 4 t. Otv. red. Y. A. Suhanov. 2-e izd., pererab. i dop. Veshnoe pravo. Nasledstvennoe pravo. Intellektualnie prava. Lichnie neimushestvennie prava [Civil law. Textbook in 4 t. Responsible. ed. I. A. Sukhanov. 2nd ed., revised. and add. Property law. Inheritance law. Intellectual rights. Moral rights]. Moscow, Statut, 2019, vol. 2, 464 p.
34. O'zbek tilining izohli lug'ati [Annotated dictionary of the Uzbek language]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan, vol. 2, 2006, p. 247, 672 p.
35. Raxmatov A. Patent huquqi. O'quv qo'llanma [Patent law. Study guide]. Tashkent, TSUL, 2021, p. 60.
36. Oqyulov O. Madaniy qaroqchilik huquqbazarlik tizimi sifatida [Cultural piracy as a crime system]. UZA, August 2020, p. 18.
37. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights of 19 October 2005. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/genome_dec.shtml/.
38. Model law "On the protection of human rights and dignity in biomedical research in the CIS member states", 18 Nov. 2005. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/bioethics_and_hr.shtml;
39. Recommendations "On the ethical and legal regulation and safety of genetic medical technologies in the CIS member states", October 31, 2007. Available at: <http://base.garant.ru/70385696/>.
40. International Declaration on Human Genetic Data of 16 oct. 2003. Available at: <http://www.unesco.ru/?Module=news&action=theme&id=116/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.